№ 15-AMALIY MASHG‘ULOT



TA’LIMNING FAOL METODLARI ASOSIDA TASHKIL ETILGAN MASHG‘ULOTLAR.

Ishning maqsadi: *multimedia ta’limi va uning qo‘llanilishidan maqsad quyidagilardan iborat:*

Multimedia ta’limning mohiyati:

Multimedia ta’limi turli xil axborot vositalarini *(matn, grafika, audio, video, animatsiya va boshqalar)* birlashtirgan holda o‘quv materiallarini taqdim etish usulidir. Bu usul o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilishga qaratilgan.

Multimedia ta'limining qo‘llanilishidan ko‘zda tutilgan maqsadlar:

- **O‘quv kontentlarini vizuallashtirish:**
  - *murakkab tushunchalarni tushunarli va qulay tarzda qabul qilish imkoniyati;*
  - *talabalarning vizual xotirasini ishga solish va bilim olish jarayoni jozibadorligini oshirish.*
- **Interaktivlikni ta’minlash:**
  - *talabalarning faol ishtirokini ta’minlash;*
  - *turli interaktiv elementlar (testlar, simulyatsiyalar, o‘yinlar v.b.) orqali bilim olish jarayonini dinamik qilishga erishish.*
- **Bilim olish samaradorligini oshirish:**
  - *turli axborot vositalaridan foydalanish orqali talabalarning turli idrok etish usullariga moslashish;*
  - *o‘quv kontentlarini tushunish va eslab qolishni osonlashtirish.*
- **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish:**
  - *o‘quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish;*
  - *talabalarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish.*
- **Individual yondashuvni ta'minlash:**

- *talabalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan o‘quv kontentlarini yaratish;*
- *talabalarning o‘zlashtirish tezligiga mos ravishda bilim olish imkoniyatini berish.*

- **Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish:**
  - *ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;*
  - *talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish;*
  - *talabalarni mustaqil bilim olishga o‘rgatish.*

Multimedia ta’lim o‘quv jarayonini yanada samarali, eozibodor va zamonaviyligini ta’minlaydi.

Vazifalar:

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash;
2. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovadan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
3. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

O‘quv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma’lumot

Multimedia *(lotincha – ko‘p va – vositachi bo‘lmoq)* – kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoma’lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasi. Ana shunday qurilma o‘rnatilgan kompyuter multimediali kompyuterlar deyiladi. Hozirda barcha kompyuterlar multimediali qurilmalar bilan ta’minlangan.

Multimedia bu zamonaviy axborot texnologiyalarining nisbatan yosh sanoatidir. "Multimedia" so‘zining so‘zma-so‘z tarjimasi “ko'plab media” (“multi” – “ko‘p”, “media” - "o‘rta") degan ma’noni anglatadi. Ushbu atama bir vaqtning o‘zida bir nechta axborot kanallari orqali foydalanuvchiga ta’sir qilishni anglatadi. Bunday holda, foydalanuvchiga odatda faol rol beriladi.

Multimedia ilovalarini ishlab chiqish bir necha bosqichda amalga oshiriladi, ulardan asosiylari quyidagilar:

- rejalashtirish;
- elementlarni ishlab chiqish;
- dasturiy ta'minot;
- tekshirish;
- e'lon qilish;
- reklama;
- ko’zatuv.

Microsoft PowerPoint – universal, imkoniyatlari keng bo‘lgan, ko‘rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va *matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik* va boshqalardan tashkil topgan multimediali slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Multimediali ta'limning afzalliklari:

- muqobil istiqbollar;
- faol ishtirok;
- tezkor ta'lim olish;
- bilimlarni xotirada saqlash va qo‘llay olish;
- muammolarni yechish va qaror qabul qilish ko‘nikamalari;
- tizimli ravishda tushuna boorish;
- yuqori darajadagi tafakkur;
- mustaqillik va e'tiborlilik;
- axborotlar ketma-ketligi va tezligini (temp) boshqarish;
- qo‘llab-quvvatlash axborotlaridan foydalanish imkoniyatlari.

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**
   1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;
   1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.
2. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:
   2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;

2.2. tug‘ilgan savollarga javob berish;

3. Yakuniy qism *(10 daqiqa)*:

3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;

3.2. talabalarni rajbatlantirish;

3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.

3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuterlar va kompyuter dasturlarini ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash, maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma “Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari” fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Rasmlardagi qadamlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil eting.



2-topshiriq. 100 gacha bo‘lgan sonlarni qo‘shish va ayirish *(4-sinf)*. Interaktiv simulyatordan foydalanish misolida.

Taqdim etilayotgan ushbu mavzu “Multimediali o‘yinlar, tanlovlar, viktorinalar, darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun simulyatorlar” tanloviga qo‘shilgan va o‘quvchilarning hisoblashga bo‘lgan ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarga misolni yechish va berilgan sonlar orasidagi to‘g‘ri javobni tanlashga

imkon yaratish talab etiladi. Taqdimotda trigger va tovush effektlaridan foydalanishga imkon yaratish ko‘zda tutiladi.



3-topshiriq. Multimedia mavzusida ushbu krossvordni yarating. Krossvordning interaktivligini amalga oshiring.



4-topshiriq. Muhammad Yusufning “Biz baxtiyor bolamiz” she’ridagi qoldirilgan so‘zlarni interaktiv to‘ldirish imkonini yarating.

Bizlar butun dunyoda,
Eng baxtiyor [ ]
Zamonaviy bog’chada,
Biz [ ] olamiz.
Bog’chamizda turli xil,
O’yinchoqlar juda ko’p.
Barchamiz [ ] , ahil,
O’ynaymiz. quvnaymiz xo’p

5-topshiriq. O‘quvchilarni testlash uchun 10 ta savoldan iborat test variantlarini namuna bo‘yicha ishlab chiqing.

